| XOMASHYO VA MATERIALLAR SARFI VA UNING MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILISHI AUDITI .....                                                        | 386 |
| Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi, Tajiyeva Nargiza Abdunabi qizi                                                                              |     |
| YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING MAKROIQTISODIY MODELLARI.....                                                                              | 391 |
| Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Sharipov Kuvondik Baxtiyorovich                                                                         |     |
| MAMLAKATLARDA SOLIQ SIYOSATI VA AMALDA BO'LGAN SOLIQLARNING XUSUSIYATLARI.....                                                             | 396 |
| Azimova Feruza Payziyevna, O. Maxmudov                                                                                                     |     |
| BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURSLAR BILAN TA'MINLASHDAGI BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.....                                 | 401 |
| Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U. Umarov                                                                                          |     |
| BUXGALTERIYA HISOBIDA MATERIALLAR HARAKATINI RASMIYLASHTIRISH VA ULARNING SINTETIK HISOBINI TASHKIL ETISH .....                            | 407 |
| Umarov Mahmud Nizomiddin o'g'li, Qo'ziyeva Maftuna Otabek qizi                                                                             |     |
| СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                                          | 410 |
| Розоков Мухаммадазиз Мансурович, Каримова Азиза Махомадризовна                                                                             |     |
| SUN'IY INTELLEKT VA MEHNAT RESURSLARI: EVOLUTSIYA YOKI INQIROZ.....                                                                        | 416 |
| Abdumalikov Muzaffar Abdunazir o'g'li, Ortiqboyev Otabek Zavqsher o'g'li, Meliboyev Ibrohim Mavlon o'g'li                                  |     |
| AHOLI DAROMADLARI O'SISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH VA PROGNOZLASH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI .....                                             | 421 |
| Abduraxmonov Valijon G'ofurovich, Yusupova Dilnigor A'zamjon qizi                                                                          |     |
| THE INVISIBLE WORKFORCE: PRECARIY AND MENTAL HEALTH AMONG PLATFORM-BASED TOUR GUIDES (AIRBNB EXPERIENCES, WITHLOCALS).....                 | 426 |
| Kamalova Malika Umidjanovna, Zufarova Nozima Gulamiddinovna                                                                                |     |
| МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....                                       | 432 |
| Рахмонов Азизбек Мансурович, Каримова Азиза Махомадризовна                                                                                 |     |
| ONLAYN PLATFORMA VA MOBIL ILOVALAR ORQALI MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH .....                                                           | 438 |
| Zafarova Azizaxon Shuxrat qizi, Jumaniyazov Inomjon Turayevich                                                                             |     |
| RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINING TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....                  | 444 |
| Tayirov Ozodbek Ulug'bek o'g'li, Ziyodova Rayhona                                                                                          |     |
| НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....                                                     | 449 |
| Равшанова Насиба Фарруховна, Каримова Азиза Махомадризовна                                                                                 |     |
| SAVDO KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....                                                           | 456 |
| Qurbonova Rahima Jamshedovna, Alimatova Muslima Akmalovna                                                                                  |     |
| KORXONALARDA ASOSIY FAOLIYAT XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                  | 461 |
| Djumayeva Guzal Axtamovna, Aliboyeva Muxlis Muzaffar qizi                                                                                  |     |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING XORI TAJRIBALARI.....                                                       | 466 |
| Dusmatov Begmuxammad Olimjonovich, Mirzaahmedov Mirziyo Ulug'bek o'g'li                                                                    |     |



|                                                                                |     |
|--------------------------------------------------------------------------------|-----|
| ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI BIZNES MUHITINI TAHLIL QILISH XUSUSIYATLARI ..... | 471 |
| <b>Xazratov Abror Panjiyevich, Muratkulov Xumoyun Dilshodovich</b>             |     |



# ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARI BIZNES MUHITINI TAHLIL QILISH XUSUSIYATLARI

**Xazratov Abror Panjiyevich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
dotsenti, PhD

**Muratkulov Xumoyun Dilshodovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida korxonalarning ichki va tashqi biznes muhitiga ta'sir etuvchi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, texnologik va huquqiy omillar o'rganildi. Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitini baholashda SWOT, PESTEL va Porterning "Beshta kuch" modeli kabi zamonaviy strategik tahlil usullarining ahamiyati yoritildi. Tahlillar natijasida ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamli boshqaruv tizimlarini rivojlantirish, marketing faoliyatini kuchaytirish va strategik rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** biznes muhiti, ishlab chiqarish korxonasi, strategik tahlil, SWOT tahlil, PESTEL tahlil, Porter modeli, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish, raqamli boshqaruv, marketing strategiyasi.

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of analyzing the business environment of manufacturing enterprises. The study investigates economic, political, social, technological, and legal factors affecting the internal and external business environment of enterprises. In addition, the importance of modern strategic analysis methods such as SWOT analysis, PESTEL analysis, and Porter's Five Forces model in assessing the business environment of manufacturing enterprises is highlighted. The findings reveal the necessity of implementing innovative technologies, developing digital management systems, strengthening marketing activities, and improving strategic planning mechanisms within enterprises. The results of the research contribute to enhancing the competitiveness of manufacturing enterprises, improving resource efficiency, and ensuring sustainable economic development.

**Key words:** business environment, manufacturing enterprise, strategic analysis, SWOT analysis, PESTEL analysis, Porter model, competitiveness, innovative development, digital management, marketing strategy.

**Аннотация.** В данной статье исследованы теоретические и практические аспекты анализа бизнес-среды производственных предприятий. В ходе исследования были изучены экономические, политические, социальные, технологические и правовые факторы, влияющие на внутреннюю и внешнюю бизнес-среду предприятий. Также раскрыта значимость современных методов стратегического анализа, таких как SWOT-анализ, PESTEL-анализ и модель «пяти сил» Портера, в оценке бизнес-среды производственных предприятий. По результатам анализа установлена необходимость внедрения инновационных технологий, развития цифровых систем управления, усиления маркетинговой деятельности и совершенствования механизмов стратегического планирования на предприятиях. Результаты исследования направлены на повышение конкурентоспособности производственных предприятий, эффективное использование ресурсов и обеспечение устойчивого экономического развития.

**Ключевые слова:** бизнес-среда, производственное предприятие, стратегический анализ, SWOT-анализ, PESTEL-анализ, модель Портера, конкурентоспособность, инновационное развитие, цифровое управление, маркетинговая стратегия.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning biznes muhitini to'g'ri baholash va tahlil qilish darajasiga bog'liq hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida korxonalar nafaqat ichki resurslardan samarali foydalanishi, balki tashqi iqtisodiy omillar, raqobat muhiti, iste'molchilar talabi va davlatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda faoliyat olib borishi zarur. Shu



sababli ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini chuqur tahlil qilish, mavjud imkoniyat va xavflarni aniqlash hamda strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiya jarayonlarining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda bozor talablarining tez o'zgarishi ishlab chiqarish korxonalari oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishda biznes muhitini muntazam tahlil qilib borish muhim omil hisoblanadi. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va huquqiy omillarni o'rganish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Ishlab chiqarish korxonalari biznes muhiti ichki va tashqi omillar yig'indisidan iborat bo'lib, ular korxona faoliyatining natijadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ichki muhit tarkibiga ishlab chiqarish quvvatlari, moddiy-texnik baza, moliyaviy resurslar, kadrlar salohiyati, boshqaruv tizimi va innovatsion faoliyat kiradi. Tashqi muhit esa bozor kon'yunkturasi, raqobatchilar faoliyati, iste'molchilar talabi, soliq va kredit siyosati, investitsion muhit hamda davlat tomonidan yaratilayotgan iqtisodiy sharoitlarni o'z ichiga oladi. Mazkur omillarni tizimli ravishda tahlil qilish korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda sanoatni modernizatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va eksport hajmini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda biznes muhitini baholash va strategik tahlil qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning bozor sharoitlariga moslashish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi, raqobatbardoshlikning susayishi hamda moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir qiluvchi holatlar yuzaga kelmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda biznes muhitini tahlil qilishning SWOT, PESTEL, Porterning "Beshta kuch" modeli, VRIO va benchmarking kabi zamonaviy usullari keng qo'llanilmoqda. Ushbu usullar orqali korxonaning ichki imkoniyatlari, tashqi tahdidlar va bozordagi raqobat holatini baholash mumkin bo'ladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitining kompleks tahlili strategik rejalashtirish, innovatsion rivojlanish va investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitini tahlil qilish mexanizmlarini takomillashtirish, korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va zamonaviy bozor sharoitlariga mos boshqaruv tizimini shakllantirish zarurati bilan izohlanadi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes muhitini real vaqt rejimida monitoring qilish, ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash va strategik qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotning maqsadi ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda biznes muhitini baholash va boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida ishlab chiqarish korxonalarining biznes muhiti va unga ta'sir etuvchi omillar tanlangan bo'lsa, tadqiqot predmetini esa biznes muhitini tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, qiyosiy tahlil va iqtisodiy kuzatish metodlaridan foydalaniladi.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitini samarali tahlil qilish, strategik boshqaruv tizimini rivojlantirish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilish masalalari iqtisodiyotni boshqarish, strategik menejment va marketing sohalarida faoliyat yurituvchi ko'plab olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Biznes muhiti korxona faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar yig'indisi sifatida talqin qilinib, uni kompleks tahlil qilish korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda biznes muhitini baholash, strategik tahlil qilish va korxona raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq turli nazariy yondashuvlar shakllangan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan M. Porter korxona raqobatbardoshligini shakllantirishda biznes muhitining o'rnini chuqur tahlil qilgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning "Beshta kuch" modeli korxonaning bozordagi mavqeini baholash, raqobatchilar bosimi, yangi ishtirokchilar xavfi, substitut mahsulotlar tahdidi hamda yetkazib beruvchilar va xaridorlar ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Porterning ilmiy qarashlariga ko'ra, korxona samaradorligi tashqi biznes muhitini to'g'ri tahlil qilish va unga mos strategiyalar ishlab chiqishga bog'liq.

F. Kotler marketing va biznes muhiti masalalarini o'rganib, korxona faoliyatiga makro va mikro muhit omillarining ta'sirini asoslab bergan. Olimning fikricha, iste'molchilar ehtiyojlari, bozordagi talab, raqobatchilar faoliyati va texnologik o'zgarishlar korxona strategiyasini shakllantirishda asosiy omillar hisoblanadi. Kotler biznes muhitini muntazam monitoring qilish korxonalarning bozordagi muvaffaqiyatini ta'minlashini ta'kidlagan.





I. Ansoff strategik boshqaruv nazariyasida biznes muhitining o'zgaruvchanligini asosiy omillardan biri sifatida baholab, korxonalarda strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. U tashqi muhitdagi noaniqliklar va xavf omillarini oldindan aniqlash orqali korxonalarning moslashuvchanligini oshirish mumkinligini qayd etgan. Shuningdek, SWOT tahlil usulining amaliy qo'llanilishi korxonalarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlarini aniqlashda muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

PESTEL tahlil konsepsiyasi ham biznes muhitini o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni tahlil qilish orqali korxona faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini baholash imkonini beradi. Ilmiy manbalarda ushbu usul ishlab chiqarish korxonalarining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda samarali metod sifatida baholanadi.

MDH davlatlari iqtisodchi olimlari tomonidan ham biznes muhiti va strategik boshqaruv masalalari keng tadqiq qilingan. Jumladan, O. S. Vixanskiy, A. I. Naumov, V. D. Markova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida korxonalarning tashqi va ichki muhitini tahlil qilishning nazariy asoslari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida korxona faoliyatini samarali boshqarishda strategik tahlil usullarining ahamiyati alohida ta'kidlangan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini boshqarish, biznes muhitini tahlil qilish va raqobatbardoshlikni oshirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S. G'ulomov, Yo. Abdullayev, A. O'lmasov, Sh. Shodmonov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar, bozor munosabatlari va strategik boshqaruv mexanizmlari o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion rivojlanish, investitsion muhitni yaxshilash va biznes jarayonlarini modernizatsiya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes muhitini tahlil qilish masalalari ham dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Tadqiqotchilar sun'iy intellekt, "Big Data", ERP tizimlari va raqamli platformalardan foydalanish korxonalarning biznes muhitini tezkor baholash va prognoz qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ta'kidlamodalar. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va strategik qarorlarni tezkor qabul qilish raqamli boshqaruvning muhim ustunliklaridan biri sifatida baholanmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, zamonaviy bozor sharoitlari, globalashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganishni talab etmoqda. Ayniqsa, milliy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish uchun zamonaviy ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi korxonalarning ichki va tashqi biznes muhitiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning faoliyat samaradorligiga ta'sirini baholash hamda biznes muhitini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan tashqi va ichki muhit omillariga bog'liq hisoblanadi. Ayniqsa, iqtisodiy raqobatning kuchayishi, texnologik o'zgarishlarning jadallashuvi va iste'molchilar talabining tez o'zgarishi ishlab chiqarish korxonalaridan biznes muhitini doimiy ravishda monitoring qilishni talab etmoqda. Tahlillar davomida korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit, soliq siyosati, raqobat muhiti, texnologik rivojlanish darajasi hamda kadrlar salohiyati aniqlanib, ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri baholandi.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, ishlab chiqarish korxonalarining ichki biznes muhiti tarkibida moddiy-texnik baza, moliyaviy resurslar, boshqaruv tizimi va innovatsion faoliyat muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan korxonalarda ishlab chiqarish unumdorligi yuqori bo'lib, mahsulot tannarxining nisbatan pastligi kuzatildi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy qilayotgan korxonalarda mehnat unumdorligi va eksport salohiyati sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Korxonalarning tashqi biznes muhitini tahlil qilish jarayonida iqtisodiy omillarning ta'siri yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, inflyatsiya darajasi, kredit resurslari foiz stavkalari, energiya va xomashyo narxlarining o'zgarishi ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

PESTEL tahlil natijalari asosida siyosiy va huquqiy omillarning ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish,



eksport faoliyatini rag'batlantirish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar korxonalar rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Texnologik omillar tahlili shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalanayotgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi yuqori darajada shakllangan. ERP tizimlari, elektron logistika platformalari va raqamli monitoring vositalari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini bermoqda. Biroq ayrim korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligi va malakali mutaxassislar taqchilligi kuzatilmoqda.

SWOT tahlili natijasida ishlab chiqarish korxonalarining kuchli tomonlari sifatida tabiiy resurslarning mavjudligi, ichki bozordagi talabning oshib borayotgani va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarning kuchaygani qayd etildi. Zaif tomonlar qatoriga esa ishlab chiqarish uskunalarining ma'naviy eskirganligi, innovatsion faoliyatning sustligi va marketing strategiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kiritildi. Imkoniyatlar sifatida eksport bozorlari kengayishi, xorijiy investitsiyalar oqimining oshishi va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi baholandi. Tahdidlar esa tashqi bozordagi kuchli raqobat, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi va global iqtisodiy beqarorlik bilan izohlandi.

Portnering "Beshta kuch" modeli asosida olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarida bozordagi raqobat darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, yangi korxonalarning bozorga kirib kelishi va import mahsulotlarining ko'payishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun jiddiy raqobat muhitini yuzaga keltirmoqda. Shu sababli korxonalar mahsulot sifati, narx siyosati va xizmat ko'rsatish darajasini muntazam takomillashtirib borishga majbur bo'lmoqda.

Tahlillar natijasida ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitini samarali boshqarish uchun strategik rejalashtirish tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, marketing faoliyatini kuchaytirish hamda raqamli boshqaruv mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish zarurligi aniqlandi. Ayniqsa, korxonalarda ichki va tashqi muhit monitoringini muntazam olib borish, biznes risklarini oldindan baholash va moslashuvchan boshqaruv tizimini shakllantirish korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini chuqur va tizimli tahlil qilish orqali resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda bozor sharoitlariga mos strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Bu esa korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini tahlil qilish korxona faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardoshligini ta'minlash va uzoq muddatli strategik rivojlanishni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni muntazam o'rganish korxonalar uchun mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va muammolarning oldini olish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqarish korxonalarining biznes muhitiga iqtisodiy, siyosiy, texnologik, ijtimoiy va huquqiy omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlashtirildi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, bozor talablarining o'zgarishi va global raqobatning kuchayishi korxonalardan moslashuvchan boshqaruv tizimini shakllantirishni talab qilmoqda. Tahlillar natijasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan, strategik rejalashtirish tizimini samarali tashkil qilgan va marketing faoliyatini rivojlantirgan korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligi hamda moliyaviy natijalar yuqori ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, ayrim ishlab chiqarish korxonalarida biznes muhitini baholash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion faoliyatning sustligi, moddiy-texnik bazaning eskirganligi hamda marketing strategiyalarining zaifligi korxonalar raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi. Ayniqsa, tashqi bozordagi raqobatning kuchayishi va import mahsulotlari ulushining oshishi mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulot sifati va boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirishni talab etmoqda. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- korxonalarda biznes muhitini muntazam monitoring qilish va strategik tahlil tizimini joriy etish zarur;
- SWOT, PESTEL va Portnering "Beshta kuch" modeli kabi zamonaviy tahlil usullaridan amaliyotda keng foydalanish maqsadga muvofiq;
- ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga investitsiyalar hajmini oshirish lozim;
- korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlari, ERP va CRM platformalaridan foydalanishni kengaytirish kerak;



– marketing faoliyatini kuchaytirish, bozordagi talabni chuqur o'rganish va mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi;

– eksport salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va logistika tizimini rivojlantirish tavsiya etiladi;

– malakali kadrlarni tayyorlash va ularning raqamli texnologiyalar bo'yicha bilimlarini oshirish zarur;

– davlat tomonidan ishlab chiqarish korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish va investitsion muhitni yaxshilash choralarini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ishlab chiqarish korxonalari biznes muhitini chuqur va tizimli tahlil qilish korxonalarining bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli biznes muhitini zamonaviy usullar asosida tahlil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalari oldida turgan ustuvor vazifalardan biri sifatida qaraladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Porter M. E. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. — New York: Free Press, 1980. — 396 p.
2. Kotler P., Keller K. L. Marketing Management. 15th ed. — Harlow: Pearson Education Limited, 2016. — 832 p.
3. Ansoff H. I. Corporate Strategy: An Analytic Approach to Business Policy for Growth and Expansion. — New York: McGraw-Hill, 1965. — 241 p.
4. Johnson G., Scholes K., Whittington R. Exploring Corporate Strategy: Text and Cases. 8th ed. — Harlow: Financial Times Prentice Hall, 2008. — 622 p.
5. Barney J. B., Hesterly W. S. Strategic Management and Competitive Advantage: Concepts and Cases. 6th ed. — Boston: Pearson, 2019. — 400 p.
6. Виханский О. С., Наумов А. И. Менеджмент: учебник. 5-е изд. — Москва: Магистр, 2015.
7. Yo'ldoshev N. Q. Strategik menejment. Darslik. — Toshkent: "IQTISODIYOT", 2019. — 122 b.
8. Umarxodjayeva M. G', Yaxyayeva I. K. Ishlab chiqarish menejmenti. O'quv qo'llanma. — Toshkent: "IQTISODIYOT", 2019. — 310 b.
9. Xudaynazarova D. G., Jo'rayev S. B. Ishlab chiqarish korxonalarida qiymat zanjiri tahlili // JMBM. — 2025. — № 4.
10. Ibragimova Z. Z. Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli // Raqamli iqtisodiyot. — 2024. — № 8.
11. Eshqorayev J. Ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilish tizimini takomillashtirish // Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. — 2025. — Vol. 3, № 10. — B. 683–687. DOI: 10.5281/zenodo.17522723.
12. Grant R. M. Contemporary Strategy Analysis. 10th ed. — Hoboken: John Wiley & Sons, 2019. — 672 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---